ZAMONAVIY KOREYS ESSELARIDA DISKURSIV VA KONSEPTUAL XUSUSIYATLAR (LI O REN ESSELARI MISOLIDA)

Azimova Nigora Axmad qizi
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Koreys filologiyasi kafedrasi o‘qituvchisi
komilnomozov643@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur maqolada zamonaviy koreys yozuvchisi Li O Ren esselarida diskurs hodisasining lingvistik va konseptual xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda diskurs tushunchasining nazariy asoslari, tarixiy rivoji, esselarda qo‘llanilgan leksik-semantik va sintaktik-stilistik vositalar hamda konseptual birliklar o‘rganiladi. Natijada diskursning kommunikativ, pragmatik va madaniy jihatlari ochib beriladi.*

Аннотация: *В данной статье анализируются лингвистические и концептуальные особенности дискурса в эссе современного корейского писателя Ли О Рена. В исследовании рассматриваются теоретические основы понятия дискурса, его историческое развитие, а также лексико-семантические и синтаксико-стилистические средства, используемые в эссе, и концептуальные единицы. В результате раскрываются коммуникативные, прагматические и культурные аспекты дискурса.*

Abstract: *This article analyzes the linguistic and conceptual features of discourse in the essays of the modern Korean writer Lee O-Ren. The study examines the theoretical foundations of the concept of discourse, its historical development, as well as the lexical-semantic and syntactic-stylistic devices used in the essays and conceptual units. As a result, the communicative, pragmatic, and cultural aspects of discourse are revealed.*

Kalit so‘zlar: *diskurs, diskurs tahlil, esse, konsept, leksik-semantika, stilistika, kommunikativlik.*

Zamonaviy tilshunoslikda diskurs tushunchasi fanlararo ahamiyat kasb etib, tilni nafaqat tizim sifatida, balki real kommunikativ jarayon sifatida o‘rganishga imkon yaratmoqda. Diskurs – bu matn, vaziyat, nutq ishtirokchilari va ijtimoiy-madaniy omillar uyg‘unligidan iborat murakkab hodisadir. Bugungi kunda badiiy matnlarni diskursiv tahlil qilish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, esse janri muallifning shaxsiy qarashlari, madaniy qadriyatlari va ijtimoiy fikrlarini ifodalashda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Zamonaviy koreys yozuvchisi Li O Ren esselari falsafiy mazmuni, madaniy qatlamlarning boyligi va kommunikativ yo‘naltirilganligi bilan ajralib turadi. Shu sababli ularning diskursiv va konseptual jihatdan o‘rganilishi ilmiy ahamiyatga ega.

Mazkur maqolaning maqsadi – Li O Ren esselarida diskursiv va konseptual birliklarning namoyon bo‘lishini tahlil qilishdan iborat.

Diskurs tushunchasi va nazariy asoslari haqida fikr yuritadigab bo‘lsak diskurs atamasi XX asrda ilmiy muomalaga kirib kelgan bo‘lib, dastlab amerikalik tilshunos Zellig Harris tomonidan qo‘llanilgan. Diskurs dastlab gapdan yuqori birlik sifatida qaralgan bo‘lsa, hozirgi davrda u murakkab kommunikativ tizim sifatida talqin qilinadi.

Diskurs quyidagi xususiyatlarga ega:

matn va vaziyat birligi;

lisoniy va nolisoniy omillar uyg‘unligi;

kommunikativ maqsadga yo‘naltirilganlik;

ijtimoiy-madaniy kontekst bilan bog‘liqlik.

Teun A. van Dijk diskursni kommunikativ voqea sifatida izohlab, unda kognitiv va ijtimoiy omillar muhimligini ta’kidlaydi. Diskurs va matn o‘rtasidagi farq shundaki, matn – nutqning natijasi, diskurs esa nutq jarayonining o‘zi hisoblanadi.

Diskurs nazariyasining tarixiy rivojlanishi: Diskurs nazariyasining ildizlari qadimgi ritorika va poetikaga borib taqalsa-da, uning ilmiy shakllanishi XX asrga to‘g‘ri keladi. Michel Foucault diskursni ijtimoiy bilim va hokimiyat bilan bog‘liq tizim sifatida talqin qilgan. Emile Benveniste esa diskursni subyektiv nutq sifatida izohlaydi.

Diskurs nazariyasining rivoji natijasida propozitsiya, presuppozitsiya, implikatura va inferensiya kabi kategoriyalar shakllandi. Bu birliklar nutqning chuqur ma’nosini ochishda muhim rol o‘ynaydi. Zamonaviy koreys yozuvchisi Li O Ren esselarida diskursning leksik-semantik xususiyatlari o‘ziga xos bo‘lib Li O Renning esselarida diskursning leksik-semantik darajasi muallif uslubining asosiy ko‘rsatkichi hisoblanadi.

Milliy-madaniy birliklar – koreys mentalitetini aks ettiradi;

Metaforik ifodalar – diskursning obrazliligini kuchaytiradi;

Sharq va G‘arb uyg‘unligi – ko‘p qatlamli semantik tizimni yaratadi.

Bu xususiyatlar diskursning mazmuniy chuqurligini ta’minlaydi. Sintaktik va stilistik vositalarga ahamiyat beradigan bo‘lsak esselarda quyidagi sintaktik va stilistik xususiyatlar kuzatiladi:

Sintaktik jihatlar: murakkab gaplar; izchil mantiqiy bog‘lanish; dialogik elementlar.

Stilistik jihatlar: ekspressivlik; ironik va falsafiy ifodalar; muallifning individual uslubi. Bu vositalar diskursning pragmatik ta’sirini kuchaytiradi.

Konseptual birliklar tahlili jihatdan Li O Ren esselarida konseptual tahlil muhim o‘rin tutadi. Sharq va G‘arb konseptlarida jiddiy farqlarni sezamiz.

Sharq – an’ana va ruhiyat; G‘arb – ratsionalizm va individuallik.

Koreya va Amerika konseptlari:

Koreya – kollektivlik;

Amerika – individualizm.

Bu konseptlar diskursning semantik asosini tashkil etadi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, diskurs zamonaviy tilshunoslikda murakkab va ko‘p qirrali hodisa bo‘lib, u matn, vaziyat va kommunikativ maqsadning birligida namoyon bo‘ladi. Li O Ren esselarida diskurs: leksik-semantik vositalar orqali mazmunni boyitadi; sintaktik va stilistik birliklar orqali ta’sirchanlikni oshiradi; konseptual birliklar orqali chuqur falsafiy mazmunni ifodalaydi.Shu sababli diskurs va konsept uyg‘unligi badiiy matn tahlilining muhim ilmiy asosini tashkil etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Абдуназарова Н.Ё. “Дискурс”ни изоҳлашга бўлган турлича ёндашувлар. Academic Research in educational sciences Volume 2/ ISSUE 4.2021. – Б. – 1200.

2. Jumaniyozova N. Yuridik diskurs lingvistik tadqiqot obyekti sifatida // “Сўз санъати” халқаро журнали. 4-жилд 1-сон. – Тошкент, 2021. – 187 б.

3. Грайс Г.П. Логика и речевое общение / Г.П. Грайс // Новое в зарубежной лнгвистики. – М.; Прогресс, 1985. – Вып.16. – 250 с.

4. Дейк Т.А. ван. Язык. Познание. Коммуникация. Пер с. анг./Под ред. В.И. герасимова. – М.: Прогресс, 1989. – 312 с. // Дейк Т.А. ван. К определению дискурса. – Л.: Сэйдж пабликэйшнс, 1998. – 384 с.

5. Демьянков В.З. Понятие и концепт в художественной литературе и научном языке // Вопросы филологии. – Москва, 2001 – №1 (7). – 46 с.// Демьянков В.З. Когнитивная лингвистика как разновидность интерпретирующего подхода / В.З. Демьянков //Вопросы языкознания. 1994. – №4. – 33 с. // Демьянков В. З. Доминирующие лингвистические теории в конце XX века, – М.; Российский госуд гуманит университет,1995. – 166 с.

6. 이어령, 뜻으로 읽는 한국어 사전. –서울:문학사상, 2009. – 295 p.